

## YANGI BOSQICHDA GI O'ZBEK DRAMATURGIYASI

*Anjim Djumaniyazova*

*O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti*

*Nukus filiali 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yangi bosqichdagi o'zbek dramaturgiyasi, so'nggi yillar o'zbek dramaturgiyasida ma'naviy-axloqiy masalalarning yangicha yo`nalishi, yangicha tafakkur bilan yoritilishi, xalqning ma'naviy qondirishda dramaturgiyaning o`rni haqida batafsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek dramaturgiyasi, ma'naviy-axloqiy masalalari, yangicha tafakkur, badiiy konflikt.

**Kirish:** Dramaturgiya har doim insonga murojat qiladi, uning qalb sirlarini ochishga harakat qiladi, insoniy o`zaro munosabatlar mazmunini tushunishga harakat qiladi, bu inson tarixiy yoki zamonaviy bo`lishining ahamiyati yo`q. Kelajakda yosh ijodkorlarimiz mohirona qalam tebratishlari uchun hozirdanoq imkon yaratmoq kerak. Har bir tuman markazlarida ijodxonalar tashkil qilinishi, musiqa maktablarida, madaniyat markazlarida yosh qalamkashlar to`garaklari har doimiy tarzda fa`oliyat yuritishi, bu albatta har bir ijodkorni ilhomlantiradi, mehnatga chorlaydi va kun kelib ulardan shoh asarlar chiqishi muqarrar.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:** Hayotda ziddiyatlar keskin va sokin bo`lgani kabi badiiy konfliktning ham turli ko`rinishlari mavjud. Ular qahramonlar orasidagi oshkora kurash tarzida ham, personajlarning o`z o`z ko`nglidagi olishuvlar tarzida ham paydo bo`ladi. Shuningdek badiiy konflikt har bir adabiy tur va janrda o`ziga xos tarzda ifodalangan bo`ladi. U drama asarlarida tamoman boshqacha holda ko`rinadi. Umuman har bir barkamol badiiy asar konflikt, shakl va mavzu, mohiyat va g`oya singari o`z unsirlarini qay shaklda namoyon etishidan qat`iy nazar, u hayotning muayyan bir ko`rinishini ta`sirchan akslantirgan, ijodkor yaratgan go`zallikdir. Badiiy asarning ichki va tashqi dunyosi esa uning tuzilishi, sujetidagi voqealarning joylashishi, qahramonlar va ular o`rtasidagi munosabatlar majmuidan iboratdir.

O`zbek yozma dramaturgiyasining kelib chiqishi va taraqqiyotini o`rganish uchun uning tarixi, kelib chiqishiga ta`sir qilgan shart-sharoitlar, amaliyoti va nazariyasining paydo bo`lishi kabi komponentlarga e`tibor berish kerak. Shunday bo`lgach eng avvalo "dramaturgiya" so`ziga berilgan ta`riflarni o`rganib chiqish maqsadga muvofiq sanaladi. Tadqiqotchi va soha olimlarining izohlaridan foydalanib, dramaturgiya badiiy asar sifatida faqat teatrda jonlanishini nazarda tutib, teatr san`atining yuzaga kelishi masalalariga to`xtalish darkor.

**Natijalar:** Ijodkor hayot haqiqatini qanchalik to`g`ri anglay olsa, muammolar mazmunini to`g`ri ochib bersa, uning asarlari xalqqa shunchalik ma'naviy foyda keltiradi. Bu borada dramaturgiya ham alohida rol o`ynaydi. O`zbek dramaturgiyasida O`.Umarbekov, Sh.Boshbekov, M.Boboyev, A.Ibrohimovning asarlari alohida urin tutadi. Ularning dramalarida sovet tuzumidagi o'zbek voqeligining muayyan tomonlari dramatik yo`sinda badily talqin qilingan.

Agar dramaturgiyani obrazlar xarakterlari va xarakatlari deb qaraladigan bo'lsa, unda sahnada yaratiladigan obrazlarning poydevori dramaturg fantaziyasidir deyish mumkin. Dramaturgiyaning hamma komponentlari dramatik obraz asosi bo'lgan maqsad tomon bo'lgan harakatini tan olishga undaydi, yanada sodda qilib aytilsa, dramaturgiya qonunlari yordamida sahnalashtirish uchun yaratiladigan asar drama deyilsa maqsadga muvofiq sanaladi. Drama teatrdan rejissor rejasi va talqini yordamida spektakl shaklida amalga oshiriladi.

**Muhokama:** O'lmas Umarbekovning dramalarida kommunistik mafkura hukmron mobaynida ham istiqloq ma'naviyati, axloqqa xizmat qiluvchi muhim va asosiy sifatlar o`z ifodasini topgan. Dramaturg an'anaviy otalar va bolalar munosabatlari, o`zaro axloq qarashlari zaminida istiqloq davri uchun juda zarur ma'naviy-axloqiy sifatlarini saqlash, asrab-avaylash yo'lida qat'iy o`ziga xos yo'l tutganligi ham kuzatiladi.

Dramaturgiya asoslari deb aytilganda, sahnalashtirish uchun asarning tug'ilishi, rivojlanishi, uning o`ziga mos xususiyatlari, turlari, unga qo'yiladigan talablar tushiniladi. Shunday ekan, dramaturgiyaning jahon miqyosida paydo bo'lish bosqichlarini o`rganish uchun uning tarixiga, teatrshunos, san'atshunos olimlar va soha mutaxassisleri g'oyalariga murojaat qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

**Xulosa:** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, zamon bilan hamnafas bo'lishda, xalqimizning ma'naviy talablarini qondirishda dramaturgiya zimmasiga, uning so'z va sahna san'atlari bilan aloqador xosiyalariga muvofiq, alohida g'oyaviy-estetik vazifalar yuklangan. Darhaqiqat, adabiyot va san'atning gullab yashnashi, jamiyatning ma'naviy barkamolligi, muhit sog'lomligiga bog'liq. Ma'naviy sog'lom sharoitni yaratishda adabiyot va san'atning roli beqiyosdir.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Y.Solijonov. "Hozirgi adabiy jarayon". T. "Innovatsiya -Ziyo". 2020.
2. Matluba Isokova. "Dramaturg mahorati". T. 2021.
3. To'laxo'jayova.M., Qozoqboev. T. "Drama nazariyasi".T. Fan va texnologiyalar markazi. 2014.
4. B.Imomov. Dramaturgik mahorat sirlari. T., 2003.